

Bekbergenova Zamira Abatbay qizi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang’ich ta’lim)” mutaxassisligi bo’yicha 1-kurs magistranti zamirabekbergenova45@gmail.com



BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARIDA O’QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

<https://zenodo.org/records/19877804>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida o’qish savodxonligini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli vositalarning o’rni ortib borayotgan sharoitda o’quvchilarning o’qish tezligi, matnni tushunish darajasi va o’qishga bo’lgan motivatsiyasini oshirish masalalariga qaratilgan. Ish jarayonida ChatGPT hamda Google Read Along kabi sun’iy intellekt asosidagi platformalardan foydalanildi. Ushbu vositalar o’quvchilarga individual yondashuv asosida o’rganish, xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish, shuningdek, o’qish jarayonini interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning o’qish tezligi va aniqligini oshirish, matn mazmunini chuqurroq anglash hamda mustaqil o’rganish ko’nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishini ko’rsatdi. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar o’quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirib, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish boshlang’ich ta’limda o’qish savodxonligini rivojlantirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Kalit so’zlar: o’qish savodxonligi, sun’iy intellekt, boshlang’ich ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, interaktiv o’qitish, adaptiv ta’lim, o’quvchilarning motivatsiyasi, ta’lim samaradorligi.

THE EFFECTIVENESS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING READING LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article examines the effectiveness of using artificial intelligence technologies in developing reading literacy among primary school students. The study focuses on improving students’ reading speed, comprehension, and learning motivation in the context of the increasing role of digital tools in modern education. During the research, AI-based platforms such as ChatGPT and Google Read Along were utilized. These tools provide opportunities for personalized learning, immediate error detection and correction, and interactive organization of the reading process. The findings indicate that the use of artificial intelligence technologies significantly enhances students’ reading accuracy and fluency, promotes deeper understanding of texts, and supports the development of independent

learning skills. Additionally, these technologies increase students' engagement and motivation in the learning process, contributing to overall educational effectiveness. The results confirm that the appropriate integration of AI tools can serve as an effective approach to improving reading literacy in primary education.

Keywords: reading literacy, artificial intelligence, primary education, digital learning technologies, interactive learning, adaptive learning, student motivation, educational effectiveness.

НАЧАЛЬНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования технологий искусственного интеллекта в развитии читательской грамотности у учащихся начальных классов. Исследование направлено на повышение скорости чтения, уровня понимания текста и учебной мотивации учащихся в условиях активного внедрения цифровых технологий в образовательный процесс. В ходе исследования были использованы такие инструменты, как ChatGPT и Google Read Along. Данные технологии обеспечивают индивидуальный подход к обучению, позволяют оперативно выявлять и исправлять ошибки, а также делают процесс чтения более интерактивным и эффективным. Результаты исследования показали, что применение технологий искусственного интеллекта способствует повышению точности и беглости чтения, более глубокому пониманию текста и развитию навыков самостоятельного обучения. Кроме того, наблюдается рост учебной мотивации и интереса учащихся к образовательному процессу. В целом, полученные результаты подтверждают, что рациональное использование технологий искусственного интеллекта является эффективным средством развития читательской грамотности в начальном образовании.

Ключевые слова: читательская грамотность, искусственный интеллект, начальное образование, цифровые образовательные технологии, интерактивное обучение, адаптивное обучение, мотивация учащихся, эффективность обучения

Kirish. Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) texnologiyalari XXI asrning eng muhim innovatsiyalaridan biri bo'lib, ular jamiyatning deyarli barcha sohalarini, shu jumladan ta'limni ham tubdan o'zgartirib bormoqda. Jahon banki va UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilga kelib 120 dan ortiq mamlakatlarda SI texnologiyalari ta'lim tizimiga integratsiya qilina boshlandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda SI dan foydalanish katta qiziqish uyg'otmoqda, chunki bu yoshdagi bolalarning o'rganish qobiliyati yuqori va ular yangi texnologiyalarga tez moslashadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023 yil 12 apreldagi PF-132-sonli Farmoni, "Ta'lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4868-sonli Qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda SI texnologiyalarini ta'limga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.[1],[2] Boshlang'ich ta'lim tizimida o'qish

savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish hamda ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlar, xususan, sun'iy intellekt asosidagi yechimlar bu jarayonda muhim o'rin egallab, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda adaptiv ta'lim muhitini yaratish imkonini bermoqda. Shuningdek, raqamli ta'lim texnologiyalari va interaktiv o'qitish usullarining integratsiyasi o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilib, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan samarali foydalanish o'qish savodxonligini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Xususan, ChatGPT o'quvchilar bilan interaktiv muloqot qilish, savollarga javob berish va tushunishni rivojlantirish imkonini beradi. Google Read Along esa o'qish jarayonida o'quvchilarning talaffuzini tekshirib, xatolarini aniqlash va tuzatishda yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili. O'qish va o'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish talqin qilish, va baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri.[3]

Savodxonlik hamma uchun tanish bo'lgan tushuncha. Savodxonlik-bu asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axborotlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo'lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir-birini to'ldiradi.[4]

Boshlang'ich savodxonlik tushunchasi o'qish va yozishni dastlabki o'rganish uchun ishlatiladi. Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurni shakllantirish, eshitish qabul qilish sezgisini o'stirishda ham mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.[5]

Sun'iy intellekt tushunchasi va ta'limdagi roli. Sun'iy intellekt (AI) — bu kompyuter tizimlari tomonidan inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajarish qobiliyatidir. Ta'limda SI o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, shaxsiy o'quv yo'nalishlarini shakllantirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosida o'qitish texnologiyalari. AI yordamida o'qitish texnologiyalari adaptiv o'quv tizimlarini yaratish imkonini beradi. Misol uchun, har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi tahlil qilinadi va unga mos topshiriqlar taklif etiladi. Bu jarayon “learning analytics” va “adaptive learning” tamoyillariga asoslanadi. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini kuzatadi, o'quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va xatolarini tahlil qiladi. Shunga asoslanib, tizim har bir o'quvchiga individual – ya'ni moslashtirilgan (adaptiv) o'quv yo'nalishini shakllantiradi. Bunday tizimlar “adaptiv o'quv tizimlari” (adaptive learning systems) deyiladi.[6]

Sun'iy intellekt asosida individual ta'lim tizimlari yaratish ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish va uni o'quvchilarga moslashtirish imkonini beradi. Bu tizimlar o'quvchining bilim darajasi, qobiliyatlari, o'qish uslubi va hatto psixologik holatiga qarab ham ta'limni boshqaradi. Bundan tashqari u o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib beradi. Individual ta'lim tizimini yaratishda tadqiqotlar faqatgina sun'iy intellekt ustidan ilmiy ishlar olib boribgina qolmay, adaptive ta'lim tizimlari yuzasidan ham izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Shute va Rahimi tomonidan o'tkazilgan adaptiv ta'lim tizimiga oid tadqiqotlari mashina o'rganish algoritmlarining ta'lim tizimlarida qanday qo'llanilishini tahlil qiladi. Ularning fikriga ko'ra, mashina o'rganish metodlari yordamida o'quvchilarni shaxsiylashtirilgan o'quv jarayonlariga yo'naltirish orqali o'quvchilarga ularning bilim va ko'nikmalarini yanada samarali tarzda rivojlantirish uchun imkoniyatlar beradi. Shuningdek, adaptiv ta'lim tizimlari, o'quvchilarning har birining individual imkoniyatlarini hisobga olib, o'qish jarayonini boshqarishga ham yordam beradi.[7]

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Jumladan, ChatGPT tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasiga asoslangan bo'lib, u o'quvchilarga matn mazmunini tushuntirish, savollarga javob berish va o'qilgan materialni tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy manbalarda ChatGPT o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o'qilgan matnni chuqurroq anglash va reflektiv o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Bu texnologiya asosan o'rta va yuqori boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali interaktiv o'qitish vositasi sifatida baholanadi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirishda ovozli va interaktiv platformalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Google Read Along ilovasi sun'iy intellekt asosida ishlaydigan nutqni aniqlash texnologiyasiga tayanib, bolalarning to'g'ri o'qish, talaffuz va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlarda ushbu platforma o'quvchilarga darhol feedback berish orqali xatolarni tuzatish va o'qish jarayonini bosqichma-bosqich yaxshilash imkonini berishi ta'kidlanadi. Ilova

ayniqsa 5–10 yoshdagi bolalar uchun mos bo‘lib, ularning fonologik ongini va o‘qish tezligini oshirishda samarali vosita sifatida qaraladi.[8]

Umumiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ChatGPT va Google Read Along turli darajadagi o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. ChatGPT yuqori darajadagi kognitiv jarayonlar — matnni tahlil qilish, tushunish va fikr yuritishni rivojlantirsa, Google Read Along boshlang‘ich bosqichdagi o‘qish ko‘nikmalarini, ya‘ni to‘g‘ri o‘qish va talaffuzni shakllantiradi. Shu sababli, ushbu ikki texnologiyaning integratsiyalashgan qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini kompleks rivojlantirishda samarali pedagogik yondashuv sifatida e‘tirof etiladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar sun‘iy intellekt texnologiyalarining ta‘lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligini keng yoritgan. Biroq ushbu tadqiqotlarning asosiy qismi raqamli ta‘lim vositalarining umumiy ta‘sirini baholashga qaratilgan bo‘lib, boshlang‘ich ta‘limda o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida turli AI vositalarini integratsiyalashgan holda qo‘llash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Xususan, ChatGPT ko‘proq matnni tushunish, savollarga javob berish va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida tavsiflangan. Google Read Along esa o‘qishning texnik jihatlari — talaffuz, aniqlik va tezlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv platforma sifatida qaraladi. Shunga qaramay, ushbu ikki texnologiyani bir pedagogik tizim doirasida birlashtirish va ularning o‘zaro ta‘siri orqali o‘qish savodxonligini kompleks rivojlantirish bo‘yicha empirik tadqiqotlar kam.

Shu sababli, ushbu tadqiqotda ChatGPT va Google Read Alongni integratsiyalashgan yondashuv asosida qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Ushbu yondashuvda AI vositalari bir-birini to‘ldiruvchi funksiyalarni bajaradi: ChatGPT matnni tushunish va tahlil qilishni qo‘llab-quvvatlash, Google Read Along o‘qishning texnik ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kutilayotgan natijalarga ko‘ra, ushbu integratsiyalashgan model o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishi, o‘qish tezligi va aniqligini yaxshilashi hamda matnni chuqur tushunish darajasini rivojlantirishi mumkin. Bundan tashqari, individual o‘quv ehtiyojlariga moslashgan ta‘lim jarayoni shakllanib, differensial o‘qitish samaradorligi oshishi kutiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot yarim-eksperimental (quasi-experimental) dizayn asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini sun‘iy intellektga asoslangan vositalar yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

O‘qish savodxonligini baholash testi

(Boshlang‘ich ta‘lim uchun kvazi-eksperimental tadqiqot vositasi)

1. Tadqiqot vositasining tavsifi

Mazkur test Reading Literacy darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalarini baholaydi:

- matnni o'qish va tushunish;
- axborotni ajratib olish;
- tahliliy va mantiqiy fikrlash;
- shaxsiy munosabat bildirish.

Test Educational Assessment tamoyillariga asoslanib ishlab chiqilgan va pre-test hamda post-test sifatida qo'llash uchun moslashtirilgan.

2. Test materiali

2.1. Matn bilan ishlash topshirig'i

Matn:

Ali har kuni ertalab maktabga boradi. U kitob o'qishni juda yaxshi ko'radi. Bir kuni u kutubxonadan yangi kitob oldi. Kitob juda qiziqarli edi, shuning uchun Ali uni qisqa vaqt ichida o'qib tugatdi. U o'qigan hikoyasi haqida do'stlariga ham gapirib berdi.

2.2. Matnni tushunish bo'yicha topshiriqlar

A) Yopiq turdagi savollar (Multiple choice)

1. Ali har kuni qayerga boradi?
 - A) Bozorga
 - B) Maktabga
 - C) Kutubxonaga
2. Ali nimani yaxshi ko'radi?
 - A) Sport bilan shug'ullanishni
 - B) Kitob o'qishni
 - C) Sayr qilishni
3. Ali kitobni qayerdan oldi?
 - A) Do'kondan
 - B) Do'stidan
 - C) Kutubxonadan

B) Qisqa javobli savollar

4. Nima sababdan Ali kitobni tez o'qib tugatdi?

Javob: _____

5. Ali o'qigan kitobi haqida nima qildi?

Javob: _____

C) Tahliliy va interpretativ topshiriqlar

6. Matnga mos sarlavha tanlang yoki yarating.

Javob: _____

7. Ushbu matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Javob: _____

3. Baholash mezonlari (Scoring rubric)

Ko'rsatkich	Tavsif	Ball
Yopiq savollar	Har bir to'g'ri javob	1 ball
Qisqa javob	Mazmunan to'g'ri va to'liq	0–2 ball
Tahliliy javob	Mantiqiy, asoslangan fikr	0–3 ball

Maksimal ball: 15

4. O'qish texnikasini baholash mezonlari

Mazkur qism Google Read Along bilan integratsiyalashgan holda qo'llaniladi.

Ko'rsatkich Tavsif

O'qish tezligi So'z/minut

Aniqlik Xatolar soni

Talaffuz 1–5 ball oralig'ida baholanadi

5. Motivatsion so'rovnoma

1. Siz kitob o'qishni yoqtirasizmi?

Ha Yo'q

2. Darslarda texnologiyalardan foydalanish siz uchun qiziqmi?

Ha Yo'q

3. ChatGPT yordamida o'rganish sizga foydali bo'ldimi?

Ha Yo'q

Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida o'quv jarayonida ChatGPT va Google Read Along

vositalaridan integratsiyalashgan holda foydalanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usuli qo'llanildi.

Tadqiqot vositalari sifatida o'qish savodxonligini baholovchi testlar, qisqa matni tushunish topshiriqlari hamda so'rovnomalar ishlatildi. ChatGPT o'quvchilarning matni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv savol-javob vositasi sifatida qo'llanildi. Google Read Along esa o'qishning texnik jihatlarini, ya'ni talaffuz, tezlik va aniqlikni rivojlantirish uchun ishlatildi.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: avval o'quvchilarning boshlang'ich darajasi aniqlandi (pre-test), so'ngra AI vositalari asosida darslar o'tkazildi, yakunda esa o'quvchilarning natijalari qayta baholandi (post-test). Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi va guruhlar o'rtasidagi farq solishtirildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellektga asoslangan vositalardan integratsiyalashgan foydalanish o'qish savodxonligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Pre-test natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida o'qish savodxonligi darajasi deyarli bir xil bo'lgan. O'quvchilar matni o'qishlari mumkin bo'lsa-da, tushunish darajasi va savollarga javob berish ko'nikmalari o'rtacha darajada qayd etilgan.

Tajriba jarayonida ChatGPT o'quvchilarning matni tushunish, savollarga javob berish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv yordamchi sifatida qo'llanildi. Shu bilan birga, Google Read Along o'quvchilarning o'qish tezligi, talaffuzi va aniqligini yaxshilashga yo'naltirilgan amaliy mashqlarni taqdim etdi.

Post-test natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida o'qish savodxonligi darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, o'quvchilarning matni tushunish darajasi yaxshilangan, savollarga to'liq va mantiqiy javob berish ko'nikmasi rivojlangan hamda o'qishdagi xatoliklar soni kamaygan. Nazorat guruhida esa o'sish mavjud bo'lsa-da, u tajriba guruhiga nisbatan pastroq ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, ChatGPT va Google Read Alongni birgalikda qo'llash o'quvchilarning o'qish savodxonligini kompleks rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv nafaqat o'qish texnikasini, balki matni chuqur tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini ham bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektga asoslangan vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Xususan, ChatGPT o'quvchilarning matni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirgan bo'lsa, Google Read Along o'qishning texnik jihatlarini — talaffuz va aniqlikni yaxshilashga yordam berdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki vosita bir-birini to'ldiradi va birgalikda qo'llanganda o'qish savodxonligini kompleks rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqish va faollikning oshishi kuzatildi.

Shu bilan birga, tadqiqotning tanlanma hajmi cheklanganligi natijalarni umumlashtirishda ayrim cheklovlarni keltirib chiqaradi. Kelgusida kengroq guruhlar asosida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, ChatGPT matn mazmunini tushunish, tahlil qilish hamda savollarga javob berish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bergan bo'lsa, Google Read Along o'qishning texnik jihatlari — talaffuz, aniqlik va o'qish tezligini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Olingan natijalar ikki turdagi texnologiyaning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarda nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki matnni chuqur anglash va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishi mumkin.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, tadqiqot tanlanmasining cheklanganligi va tajriba muddatining qisqaligi natijalarni umumlashtirish imkoniyatini ma'lum darajada cheklaydi. Kelgusida keng ko'lamli va uzoq muddatli tadqiqotlar orqali ushbu modelning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-sonli Farmoni, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, "Ta'lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4868-sonli Qarori, 2020.
3. Ta'lim sifati. PIRLS tadqiqoti telegram kanali.
4. A.O'.Mirzayev "O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish" Scientific Progress, Volume 2. ISSUE 8 | 2021.P.832
5. K.Qosimova, S.Matjonov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "NOSIR" nashr, 2009.
6. R.T. Alimov "Ta'limda sun'iy intellekt: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollor", 2025.
7. Shute, V. J., & Rahimi, S. (2017). Personalized learning: A definition and review of the literature. Educational Technology Research and Development.
8. OpenAI & Google (2025) AI-based educational tools for reading literacy development: ChatGPT and Google Read Along systems overview.